



**TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

**LABOR ECONOMICS**

# **MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI**

ilmiy elektron jurnali

## **LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

**2024 yil 4-son**

Volume 10, Issue 4, 2024



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI  
VA INSON KAPITALI**  
**ISSN: 3030-3117**



**LABORECONOMICS.UZ**

**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI**

*№ 4-2024*

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ  
КАПИТАЛ**

**LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL**

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis:** “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

**Tahririyat manzili:**

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,  
49 uy

**Elektron manzil:** [ilmiymaktab@gmail.com](mailto:ilmiymaktab@gmail.com)

**Jurnal web-sayti:** [www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**Bog‘lanish uchun telefonlar:**

+998998818698

**Tahririyat Kengashi raisi:****(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

**Tahririyat Kengashi a'zolari:****(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.  
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.  
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof  
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof  
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof  
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.  
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.  
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.  
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.  
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.  
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.  
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)  
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.  
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.  
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.  
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

**Jamoatchilik Kengashi a'zolari:****(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)  
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)  
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)  
Keynz Miller (AQSh)  
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)  
Masato Xivatari (Yaponiya)  
Gerxard Feldmayer (Germaniya)  
Eko Shri Margianti (Indoneziya)  
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)  
Rohana Ngah (Malayziya)  
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)  
Teguh Dartanto (Indoneziya)  
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)  
Muhammed Xoliq (Pokiston)  
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

**Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief):** G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

**MUNDARIJA (CONTENTS)****MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

|  |   |       |
|--|---|-------|
| <b>S.B.G'oyipnazarov</b><br><b>I.A.Bakiyeva</b><br><b>S.M.Kurbanbayeva</b> | <i>Change of professions and skills in the field of tourism under the influence of artificial intelligence.....</i> | 6-19  |
| <b>S.S.Amirdjanova</b>   | <i>Приоритетные направления занятости населения и организационно-экономические механизмы его реализации.....</i>    | 20-33 |

**INSON KAPITALI**

|   |   |       |
|---|---|-------|
| <b>A.B.Irmatova</b><br><b>A.M.Saidahmadov</b> | <i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi .....</i>                      | 34-50 |
| <b>F.O.Odilova</b>                            | <i>Касб-хунар таълими битирувчиларининг касбий кўникмаларини оширишга таъсир кўрсатувчи омиллар .....</i> | 51-60 |
| <b>T.N.Azimov</b>                             | <i>Роль высшего образования в обеспечении устойчивого роста человеческого капитала .....</i>              | 61-78 |
| <b>T.B.Shomurodov</b>                         | <i>Oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashning inson kapitalini rivojlanishiga ta'sirini baholash .....</i>   | 79-86 |

**INSON TARAQQIYOTI**

|                            |  |         |
|----------------------------|--|---------|
| <b>Sh.D.Akishova</b>       | <i>O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy salohiyatni oshirishning zamonaviy holati.....</i>                     | 87-93   |
| <b>X.X.Yaxshimuratova</b>  | <i>Mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishda iste'mol kreditlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan obyektiv zarurligi.....</i>       | 94-100  |
| <b>Z.K.Murtozayeva</b>     | <i>The role of public procurement in the project financing system formed on the basis of public opinion in the Republic of Uzbekistan.....</i> | 101-109 |
| <b>Ch.O'.Ro'zimurodova</b> | <i>Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish: zamonaviy tendensiyalar va asosiy o'zgarishlar.....</i>  | 110-120 |
| <b>T.B.Shomurodov</b>      | <i>O'zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholashning metodologiyasini takomillashtirish.....</i>             | 121-130 |

**KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH**

|                     |   |         |
|---------------------|---|---------|
| <b>O.A.Norboyev</b> | <i>Мулкий муносабатлар механизмини такомиллаштириш.....</i> | 131-141 |
|---------------------|---|---------|

|   |  |         |
|---|--|---------|
| <b>T.B.Shomurodov</b>                           | <i>Daromad tengsizligining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: rivojlanayotgan mamlakatlar misolida.....</i>                         | 142-150 |
| <b>MIGRATSIYA</b>                               |  |         |
| <b>Z.T.Jumanova</b>                             | <i>Turizm sohasi faoliyatini statistik tahlil qilish.....</i>  | 151-161 |
| <b>INSON RESURLARINI BOSHQARISH</b>             |  |         |
| <b>M.F.Abdumannofova</b>                        | <i>Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tendensiyalari .....</i>                              | 162-171 |
| <b>G.R.Kuziyeva</b>                             | <i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta'sirini baholash .....</i> | 172-180 |
| <b>G.R.Kuziyeva</b>                             | <i>Ishlab chiqarishda innovatsiyalarning joriy etilishining ishchi kuchi samaradorligiga ta'sirini baholash .....</i>              | 181-188 |
| <b>TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH</b>            |  |         |
| <b>S.K.Mansurov</b>                             | <i>Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tovarlar eksportining o'рни va ahamiyati .....</i>                                     | 189-203 |
| <b>S.U.Ismailova</b>                            | <i>Роль цифровых маркетинговых стратегий в обеспечении устойчивого экономического роста в цифровой экономике .....</i>             | 204-213 |
| <b>Sh.Sh.Atadjanova</b>                         | <i>Turistik destinatsiya raqobatbardoshligini oshirish orqali mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish .....</i>                 | 214-221 |
| <b>D.B.Fayziyeva</b>                            | <i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish .....</i>              | 222-232 |
| <b>Sh.U.Karimova</b>                            | <i>Mintaqada turizmni rivojlantirishda turistik resurslardan unumli foydalanish .....</i>  | 233-238 |
| <b>G.R.Kuziyeva</b>                             | <i>O'zbekistonda innovatsiyalarning yapli ichki mahsulotni diversifikatsilayalashdagi rolini baholash...</i>                       | 239-247 |
| <b>Sh.S.Sayfutdinov</b><br><b>D.T.Alijonova</b> | <i>Hududiy turizm bozorini barqaror rivojlanishining nazariy asoslari .....</i>  | 248-254 |
| <b>GENDER TENGLIGI</b>                          |  |         |
| <b>B.A.Xonturayev</b>                           | <i>Ta'lim institutlarini jamiyatga ta'sirini gender indeksleri asosida baholash .....</i>  | 255-270 |

**MUNOSIB MEHNAT**

**S.B.G'oyipnazarov**

*Barriers to the adoption of Industry 4.0 technologies in the practice of occupational safety and health of smes...*

271-281



## MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



### MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TOVARLAR EKSPORTINING O'RNI VA AHAMIYATI

**Mansurov Saidxo'ja Kamalovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti,  
“International school of finance technology” instituti o'qituvchisi

e-mail: [said.mansurov1988@gmail.com](mailto:said.mansurov1988@gmail.com)

Orcid: 0000-0003-0944-3142

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a136](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a136)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tovarlarni eksport qilish mamlakatlar iqtisodiyotga ta'siri, mamlakatda xom ashyo mahsulotlarni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shimcha qiymat mahsulotlar olinishi hamda ularni eksportga yo'naltirishni anglatadi. Shu bilan birgalikda, rivojlangan mamlakatlar resurslardan foydalanishi ularning eksport ulushida tovarlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqobat, ishlab chiqarish, eksport hajmi, xorijiy investitsiya, iqtisodiy inqiroz, import, eksport salohiyati, global iqtisodiyot, investitsiyalar, tayyor mahsulotlar, sanoat tarmoqlari, resurslar, tashqi savdo, innovatsiyalar.

### РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЭКСПОРТА ТОВАРОВ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ

**Мансуров Саидхужа Камалович**

Докторант Ташкентского государственного экономического университета,  
Преподаватель института «Международная школа финансовых технологий»

**Аннотация.** В данной статье влияние экспорта товаров на экономику страны означает получение продукции с высокой добавленной стоимостью за счет глубокой переработки сырья в стране и направления ее на экспорт. При этом выделено использование ресурсов развитыми странами, роль и значение товаров в их доле экспорта.

**Ключевые слова:** конкуренция, производства, объем экспорта, иностранные инвестиции, экономический кризис, импорт, экспортный потенциал, мировая экономика, инвестиции, готовая продукция, промышленный отрасль, внешняя торговля, инновации.

### THE ROLE AND IMPORTANCE OF EXPORT OF GOODS IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S ECONOMY

**Mansurov Saidkhodja Kamalovich**

Researcher of the Tashkent State University of Economics,



Teacher of the Institute “International School of Finance Technology”

**Abstract.** This article discusses the impact of exporting goods on the economy of a country, the production of high value-added products through deep processing of raw materials in the country and their export. At the same time, the role and importance of goods in the share of exports in the use of resources by developed countries are highlighted.

**Keywords:** Competition, production, export volume, foreign investment, economic crisis, imports, export potential, world economy, investments, finished products, industrial sector, foreign trade, innovation.

## **Kirish**

Har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishi eksport xajmini oshirish, uning samaradorligini ta'minlash xamda xalqaro savdo jarayonlarida faol ishtirok etish bilan uzluksiz bog'liq. Eksport mamlakatning ichki iqtisodiyotini tashqi bozor talablari bilan uyg'unlashtirish, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda o'ziga xos mavqe egallashga imkoniyat yaratadi.

Tovarlar eksporti mamlakatning valyuta tushumlarini ko'paytirib, tashqi savdo muvozanatini yaxshilaydi. Bu esa o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga sarmoyalarni jalb qilish, ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirish imkonini beradi. Xususan, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilish raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va ichki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yuksaltirishga xizmat qiladi.

Jahon bozorlarda tovarlarning erkin xarakatlanishi global savdo jarayonida muhim o'rin tutadi. Xozirgi kunda davlatlar o'zlarining strategik mahsulotlarini eksport qilish orqali xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlamoqda. Bu jarayonda tovarlar eksporti nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki giyosiyosiy nufuzini oshirishning asosiy vositalardan biri sifatida ham qaraladi.

O'zbekistonning ham eksport sohasidagi salohiyati yil sayin kengayib bormoqda. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, yengil sanoat tovarlari, kimyo va farmasevtika mahsulotlari hamda xizmatlar eksporti mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish orqali O'zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashib, innovatsiyalarga asoslangan rivojlanish strategiyasini amalga oshirmoqda.

Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqot tovarlar eksportining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini, uni tashkil etishning zamonaviy usullarini, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlarni taxlil qilishga qaratilgan. Eksport jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va jahon bozorida o'z o'rnini mustahkamlash mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim garovidir.



### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

To'qimachilik korxonalarining iqtisodiy va eksport salohiyatini oshirishda olimlarning bir qancha takliflari ilgari surilgan. Mahalliy olimlarimizdan A.Soliyev va Z.Xakimovlar maqolalarida “Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qo'llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari” keltirilgan.[1] Ushbu olimlarning aynan ushbu hududni tanlanishiga viloyatning tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi yuqoridagidir. A.SH.Bekmurodov va Yang Song Be “O'zbekiston to'qimachilik sanoati strategiyasini rivojlantirishda klaster yondashuvi” [2] deb nomlangan monografiyasida klaster mohiyati va ularning raqobatbardoshligi, xorijiy mamlakatlar, kompaniyalar va mahsulotlar kesimida erishilgan natijalar misollar orqali ko'rsatib berilgan.

Amerika tadqiqotchilari M.Porter “Raqobat ustunligi nazariyasi” [3], M.Enrayt, S.Resenfeld, P.Maskell va M.Lorenslar “mintaqaviy klasterlar konsepsiyasi” [4], A.Marshall “Sanoat hududlar nazariyasi” [5], P.Bekatin “Italyan sanoat okruglari nazariyalari”ni ilgari surishgan. [6] T.Kononing fikriga ko'ra, korxonani ishlab chiqargan maxsulot turi faqat bir turdagi maxsulot bilan cheklangan bo'lsa, bunday korxonada boshqa turdagi maxsulot ishlab chiqarishdan cheklanganligi sababli, yagona ixtisoslashgan korxonada deb ta'rif bergan. Aksincha agar xar xil turdagi maxsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, bunday korxonada diversifikatsiyalashgan korxonada xisoblanadi. Bozor munosabatlari shakllanishiga qarab korxonada diversifikatsiyalanishiga yoki bir turdagi maxsulot ishlab chiqarish bilan cheklanadi. [7] P.Pits va X.Xopkins ta'rifida biroz boshqacha jihatga amal qilinib, diversifikatsiyani bir vaqtning o'zida bir nechta biznes turlarini yuritish sifatida belgilaydilar. [8] Yuqorida qayd etilgan xorij olimlarning nazariyalarda klasterlar bu raqobat ustunligini amalga oshirishda yuqori samara xisoblanib ta'lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko'rsatuvchi sub'yektlar faoliyati bilan uyg'unlashgan tizimi ekanligi ta'kidlanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Izlanish davomida eksport tushunchasining nazariy va amaliy tushunchasi uning axamiyati, hamda iqtisodiy, statistik, qiyosiy taxlil, xronologik kuzatish usullardan foydalanildi. Shu bilan birgalikda, mamlakatlar rivojlanishida eksportning o'rni, mahalliy va xorij olimlarning eksport doirasida chop etilgan ilmiy ishlaridan ham foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Mamlakatlar iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishi, zamonaviy globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bir vaziyatda, ko'p jihatdan uning xalqaro savdo munosabatlaridagi ishtirokiga bog'liq. Tashqi savdoni, ayniqsa, eksportni rivojlantirish mamlakat uchun bir qator yangi imkoniyatlar ochib beradi, undan tashqari milliy iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Mamlakat eksportining

geografik tarkibi, iqtisodiyot rivojlanishiga quyidagilar orqali bevosita va bilvosita ta'sir etadi:

– eksportning geografik kengayishi ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlarga chiqishni anglatadi, bu esa yangi talab paydo bo'lganining belgisi. Ya'ni ishlab chiqaruvchi chegaralangan ichki bozorga nisbatan kengroq mintaqaviy yoki halqaro bozorda ishtirok etadi. Bu esa ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beradi. Natijada mahsulot ko'p miqdorda ishlab chiqarilib, iqtisodiy nazariyadan ma'lum “ko'lam samarasi”ning ijobiy ta'siridan foydalaniladi. Shuningdek, jalb etilgan ishlab chiqarish vositalari to'la quvvatda ishlatiladi. Lozim topilsa, ikki yoki uch smenada ishlar tashkil etilib, qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi;

– ishlab chiqarish kengaytirilishi, resurslardan to'liq darajada foydalanish ilmiy-texnikaviy yangiliklarni tatbiq etishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojni vujudga keltiradi. Buning ustiga ishlab chiqarish hajmining kengligi ma'lum yo'nalishni rivojlantirish maqsadida qilinishi ko'zda tutilgan harajatlarning samaradorligi yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Natijada ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy yangiliklar uyg'unlashuvi orqali iqtisodiyot yanada rivojlanadi. Eksportga asoslangan o'sish kontseptsiyasi eksport hajmining ortishi iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Bu kontseptsiya ayniqsa 1970-yillarda mashhur bo'lib, uni himoya qilishda Irving Kravis, Bela Balassa, Gershon Feder va boshqalar kabi taniqli olimlar so'zga chiqdilar. Ushbu gipotezani qo'llab-quvvatlovchi tadqiqotchilar eksportning iqtisodiy o'sishga quyidagicha bir nechta ta'siri borligini ta'kidlaydilar:

– mamlakatning uzoq vaqt davomida jahonning asosiy eksportyorlaridan biri bo'lib qolishi, shuningdek, jahon tovar bozorlarida samarali siyosat yurita olishi davlatning xalqaro raqobatbardoshligining eng yaxshi ko'rsatkichi va asosiy omilidir;

– jahon bozorida raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun eksport sektori samarali bo'lishi kerak: yuqori malakali ishchilar bozorini yaratish, ishlab chiqarishda fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish, shuningdek, xorijdan texnologiyalarni qarzga olish. Bundan tashqari, ilg'or mamlakatlar ishlab chiqaruvchilari bilan raqobatlashish uchun eksportchilar boshqaruvning yangi usullarini joriy etishga, yuqori sifat standartlariga javob berishga, marketingni o'rganishga majbur bo'ladilar;

– eksport hajmining oshishi aholi bandligini oshirishga olib keladi;

– mahsulotlarni xorijga eksport qilish hajmining ortishi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni ham oshiradi, bu esa, ayniqsa, ichki talab pasaygan davrda ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashi mumkin;

– eksportning o'sishi mehnat unumdorligini oshirishga olib keladi;

– eksport, shuningdek, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga qo'shilishi natijasida ishlab chiqarish ko'lamining o'sishi bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

– mahalliy mahsulotlarni xorijga eksport qilishni rivojlantirish cheklangan resurslarni butun mamlakat xo'jalik majmuasi bo'ylab yanada samarali taqsimlashga, shuningdek, ishlab chiqarish quvvatlaridan maqsadga muvofiqroq foydalanishga yordam beradi;

– eksport ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish salohiyatini faollashtirish imkonini beradi;

– eksportni rivojlantirish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshiradi. Mamlakat iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilgan muvaffaqiyatli tarmoqlari ko'pincha xorijiy investorlarni o'z yoki qo'shma korxonalarini yaratishga jalb qiladi;

– eksportning o'sishi mamlakat farovonligini oshiradi;

– eksport xorijiy valyutaga kirish imkonini beradi. Tovarlarini boshqa mamlakatlarga eksport qilishdan tushgan valyuta tushumlari keyinchalik boshqa tovarlar importini moliyalashtirish uchun ishlatiladi;

– eksportdan olinadigan daromad texnologik jihatdan ilg'or sanoat tarmoqlarini rivojlantirish imkonini beradi. Ko'pgina mamlakatlar qo'shimcha qiymati past bo'lgan tovarlar eksportidan olingan foydani (masalan, engil sanoat, qishloq xo'jaligi yoki tog'-kon sanoati mahsulotlari) tovarlarni qayta ishlash darajasi yuqori bo'lgan sanoat tarmoqlariga qayta taqsimlaydi. Malayziyada sanoatlashtirishning asosi xom ashyoni jahon bozoriga sotishdan olingan daromadlardan moliyalashtirish edi. Bu mamlakatda mashinasozlik sohasida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni yaratish imkonini berdi;

– eksportdan tushadigan daromadlar zaxira va barqarorlashtirish fondlarini yaratish uchun ishlatilishi mumkin, ularning resurslari iqtisodiyotdagi favqulodda vaziyatlarda foydalaniladi.

Misol uchun, jahon bozorida neft va gazning yuqori narxlari davrida to'plangan mablag'lar Norvegiyaga 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz davrida inqiroz hodisalarining iqtisodiyotga ta'sirini minimallashtirishga imkon berdi. Shunga o'xshash vaziyat Rossiyada ham yuzaga keldi. Neft va gaz eksportidan tushadigan daromadlar hisobidan yaratilgan zahira fondlari mablag'lari hisobidan mamlakat 2008-yilgi jahon iqtisodiy inqirozidan nisbatan xotirjam omon qoldi. Ta'kidlab o'tishimiz lozimki, eksport - bu bir mamlakatda ishlab chiqarilgan va boshqa mamlakatda xaridorlarga sotiladigan tovarlar va xizmatlardir. Eksport import bilan bir qatorda xalqaro savdoni tashkil qiladi. Mamlakatlar o'zlarining geografik chegaralarida cheklanib qolish o'rniga, ko'pincha dunyo bo'ylab savdo uchun tashqi bozorlarni qidiradilar, bu esa ko'proq daromad va tranzaksiya imkoniyatlarini beradi.

Eksport zamonaviy dunyoda mamlakatlar iqtisodiyoti uchun juda muhim faktor hisoblanadi. Chunki ular butun dunyo davlatlari aholisi va firmalariga o'z tovarlarini taklif qilishlari va katta bozor imkoniyatlariga ega bo'lishlari mumkin. Hukumatlar o'rtasidagi diplomatiya va tashqi siyosatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiy savdoni rivojlantirish, eksport va importni barcha savdo tomonlari manfaati uchun rag'batlantirishdir. Eksport shartnomalari ko'pincha strategik ahamiyatga ham ega bo'lib, mamlakatlar eksport orqali nafaqat kerakli tovarlarni olishlari, balki import orqali ko'proq ichki daromad olish uchun tovarlarni taqsimlashlari uchun shartnomalar tuzishlari mumkin. Undan tashqari, hukumatlar eksportdan siyosiy vaziyatlarda vosita sifatida ham foydalanishi mumkinligiga Ukrainadagi urushga javoban Oq uy Rossiyadan ayrim tovarlarni olib kirishni ham, eksport qilishni ham taqiqlovchi buyruq chiqarganini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Kompaniyalar o'zlarining sof eksportini o'lchash uchun, umumiy eksport miqdoridan faoliyati davomida qilingan import miqdori olib tashlanadi. Sof eksport esa mamlakat yalpi ichki mahsulotini (YaIM) o'lchashning tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham eksport, mamlakatning moliyaviy va iqtisodiy farovonligini belgilovchi omil hisoblanadi. Shu sababdan ham dunyo mamlakatlari ishlab chiqarilgan maxsulotlarning eksportiga katta etibor qaratadilar. Tovarlar to'g'ridan-to'g'ri eksport yoki bilvosita eksport orqali yuborilishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri eksport import qiluvchi bilan bevosita ishlashni talab qiladi. Eksport qiluvchi kompaniya mijozlar bilan barcha aloqalarni amalga oshiradi, natijada ular vositachilik haqini to'lamaydilar. To'g'ridan-to'g'ri eksport usuli maxsus bilimga ega bo'lgan jamoalarni talab qilishi mumkinligi sababidan, ko'plab kompaniyalar bilvosita eksportni osonlashtirish uchun vositachi tomon bilan shartnoma tuzishni afzal ko'radilar.

Ko'pgina hollarda, muayyan mahsulotlarga bo'lgan talabni tushunish uchun mamlakat boshqa davlat bilan hamkorlik qiladi. Ko'r-ko'rona mahsulot ishlab chiqarish va xalqaro xaridorga umid qilish o'rniga, eksport jarayoni ko'pincha ishlab chiqaruvchi mamlakat buyurtma olishi bilan boshlanadi. Eksport qiluvchi mamlakat tovarlarni eksport qilish uchun ko'pincha o'z mamlakatidan tegishli ruxsat olishi kerak, bu ko'pincha eksport litsenziyasini olish yoki boshqa mamlakatga xos talablarni qondirish orqali amalga oshiriladi.[9]

Eksport jarayoni odatda bir nechta moliyaviy masalalarni oldindan hal qilishni talab qiladi. Birinchidan, agar kerak bo'lsa, eksportyor importyordan akkreditiv olishi mumkin. Bu eksportchining tranzaktsiyaga ko'proq ishonishini va eksport qilinganidan keyin tovar uchun kompensatsiya olishini ta'minlaydi. Eksport qiluvchi va import qiluvchi eksport qilinadigan tovarlarni chet el valyutasidan milliy valyutaga almashtirish kursini ham belgilaydi. Ushbu nuqtada, ko'pincha hisob-faktura chiqariladi va to'lanadi, shu bilan sotuvni yakunlaydi. Buyurtma tayyorlanar ekan, rasmiy hujjatlar yig'iladi, shu jumladan

mijozlar bo'limi tomonidan berilgan ruxsatnoma, yuk varaqasi va jo'natish hujjatlari kabi moliyaviy hujjatlar va jo'natilish avans ma'lumotlari tayyorlanadi. Ushbu hujjatlar sotuvchiga yuboriladi. Sotilayotgan har bir tovar hisobidan eksport qiluvchi mamlakat hisobiga yetarlicha daromad kelib tushadi. Hozirda qaysi rivojlangan mamlakatni kuzatsangiz uning eksport salohiyati yuksak darajada ekanligini ko'rishingiz mumkin.

Bugungi kunda eng katta eksport qiluvchi mamlakatlar qatoriga, albatta, birinchi navbatta Amerika Qo'shma Shtatlarini kiritishimiz kerak. Amerika Qo'shma Shtatlari odatda avtomobil transporti eksportchilaridan biri hisoblanadi. Mahalliy kompaniyalar avtomobillar, yuk mashinalari va boshqa transport vositalarini ishlab chiqarganligi sababli, ular butun dunyo bo'ylab jo'natiladi va AQShdan tashqari korxonalar tomonidan foydalaniladi. Masalan, 2020-yilda Iqtisodiy murakkablik observatoriyasining xabar berishicha, Qo'shma Shtatlar dunyo bo'ylab 47,6 milliard dollarlik avtomobillarni tarqatib, dunyodagi uchinchi yirik avtomobil eksportchisiga aylangan.[10]

Amerika Qo'shma Shtatlari Kanadaga 10 milliard dollardan ortiq avtomobillarni tarqatdi, AQShda ishlab chiqarilgan avtomobillarni oladigan boshqa davlatlar Germaniya, Xitoy, Belgiya va Janubiy Koreyadir. Shu bilan bir qatorda, Qo'shma Shtatlar 2020-yilda avtomobillar importi bo'yicha ham yetakchi bo'ldi. U 144 milliard dollarlik avtomobil import qildi, ularning aksariyati Yaponiya, Kanada va Meksikadan keltirilgan. Dunyo bo'ylab tovarlarni tarqatadigan AQSh ishlab chiqaruvchilaridan biri bu shubhasis BMW Manufacturing hisoblanadi. BMW Manufacturing eksport qilinadigan avtomobillar qiymati bo'yicha mahalliy kompaniyalarning yetakchisi hisoblanadi. U 2021-yilda 120 ga yaqin davlatga 260 mingga yaqin avtomobil eksport qildi, eksport umumiy hajmi esa, 10 milliard dollardan oshadi. 2021-yil ketma-ket sakkizinchi yil BMW Manufacturing avtomobil eksportida qiymat bo'yicha yetakchilik qildi va kompaniya eksportining 24% dan ortig'i Xitoyga yetkazib berildi. Shunday bo'lishiga qaramasdan 2020 va 2021-yillar uchun mavjud bo'lgan so'nggi eksport ma'lumotlariga asosanib, Xitoy dunyodagi eng yirik eksportchi, undan keyin AQSh, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya bo'ldi.[11] Aytib o'tilgan bu yetakchi mamlakatlar faqatgina avtomobil ishlab chiqarish sohasida emas balki boshqa sohalar eksportida ham yuqori natijaga erishgan davlatlardir. Bu davlatlarning eksport qiluvchi tovarlari ko'pligi uchun ham bugungi kunda yetakchi eksportyorlardan hisoblanadilar.

Shuningdek, mamlakat eksport qilayotgan tovarlar turining ko'p bo'lishi xalqaro bozordagi tarkibiy tebranishlarga nisbatan iqtisodiyotning sezuvchanligini pasaytiradi, bu bilan xalqaro bozorda talab va narx o'zgarishlarining milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sirlari yumshatiladi. Qayta ishlangan mahsulotlarning yuqori ulushi esa eksport tushumlarini ko'paytirishi



bilan bir qatorda, yuqori qo‘shilgan qiymat hisobiga mamlakatning sof foydasini ham oshiradi.

Tashqi savdoning tarkibiy xususiyatlari iqtisodiyot sog‘lomligi, barqarorligi va xavfsizligi nuqtai nazaridan muhim ekanini ko‘rdik. Ayniqsa, turli milliy iqtisodiyotlar o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchayib borayotgan hozirgi davrda bu masalaning dolzarbligi bir necha marta ortib bormoqda. Bu holatda eng ma‘qul chora tashqi savdo aloqalarida bir turdagi mahsulot yoki bir mamlakat va mintaqaga bog‘lanib qolinishining oldini olish hisoblanadi. Iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi kategoriya bu tashqi iqtisodiy faoliyatdagi eksport jarayonlari xisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarning tovarlar eksport xajmiga e‘tibor qaratilsa bunda eksport importga nisbatan yuqoriligi ko‘rinadi. Shuningdek eksport salohiyati yuqori bo‘lgan mamlakatlarning iqtisodiyotidagi yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlari yuqoriligini ko‘rish mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tovarlar eksportining ta‘siri, tashqi savdoning shakllanish sabablarini Adam Smit, David Rikardo, Djon Styuart Mill, Eli Xeksher, Bertil Olin, M. Porter singari asoslab beruvchi bir qancha olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

A. Smit “Xalqlar boyligining tabiati” nomli kitobida mutloq ustunlik nazariyasiga asos solib, mamlakatlarning eksport-import munosabatlarini tartibga solish ikkala davlat ehtiyojlari uchun ham manfaatli bo‘ladi degan ta‘rifni ilgari suradi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, ushbu ta‘rif eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish ikki davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar manfaatlariga va ularning mavjud resuslarini ayirboshlashda xizmat qiladi.

D. Rikardo “Siyosiy iqtisodiyot asoslari va soliqqa tortish” nomli kitobida davlatlarni misol tariqasida olib, unga ko‘ra mamlakatlarning yuqori ishlab chiqarish samaradorligi bo‘lgan sanoat tovarlarni eksportini amalga oshirish, nisbatan kam daromad keltiradigan tovarlar importini amalga oshirishni zarurligini ta‘kidlagan.[12]

Taniqli Amerikalik iqtisodchi olim M.Porter tashqi savdo kompaniyalar raqobat manfaatlarini oshirishda sanoati rivojlangan xamda eksport xajmi yuqori bo‘lgan mamlakatlar kompaniyalar tajribasini o‘rgangan. O‘rganish natijasida Avstraliya, Yangi Zelandiya, AQSh kabi davlatlarning iqtisodiyotda tovarlar eksporti raqobatbardoshligini oshirishda davlat miqyosida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi.[13]

Eli Xeksher va Bertil Olinlar keltirgan ta‘riflar D.Rikardo va A.Smit ta‘riflariga o‘xshash bo‘lib, unga ko‘ra mamlakatning tabiiy resurslari yuqori bo‘lgan hom ashyolarni qayta ishlash va tovarlar eksportini amalga oshirishni ta‘kidlaydilar. Mamlakatda taqchil bo‘lgan tovarlar yoki ayrim resurslarni mavjud emasligini yoki yetishmasligini inobatga olib, ba‘zi tovarlar importini amalga oshirishni ilgari suradilar.

1-jadvalda eksportning mamlakat iqtisodiyotiga ahamiyatining 12 yo’nalishi ko’rib chiqilganligi keltirilgan. Eksportning geografik kengayishi omilida iqtisodiyot diversifikatsiyalangan sari turli xil assortimentga ega bo’lgan mahsulot ishlab chiqiladi, buning natijasida raqobat yuzaga keladi va mahsulotlarni yangi davlatlar bozorlariga kirish choralari ko’riladi. Eksport hajmi oshib borgan sari resurslarni samarali ishlatilishini rag’batlantiriladi. Ishlab chiqarish tannarxi pasaygan sari, ilmiy texnik ishlanmalarga talab ortadi va mahsulotlar raqobatbardoshligini ta’minlashga olib keladi.

Mahsulot ichki bozorda yetarli talabni vujudga keltirgandan so’ng tashqi bozorlarga olib chiqish ta’minlanadi va xalqaro raqobat yuzaga keladi. Mahsulotlar tashqi bozorlarga eksportini muntazam ta’minlanishida, mahsulot tannarxini pasaytirish, mahsulot ustida ishlash, ilmiy texnik konstruktorlik ilmiy ishlanmalarni joriy qilib borishni nazarda tutadi. Bular eksport salohiyatini mustahkamlab boradi.

### 1-jadval

#### Eksportning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati

| №  | Asosiy yo’nalishlar                         | Tavsif   |
|----|---|--|
| 1  | Eksportning geografik kengayishi            | Yangi bozorlarga kirish imkoniyati; ishlab chiqarishni kengaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, qo’shimcha ish o’rinlari yaratish.               |
| 2  | Resurslardan samarali foydalanish           | Ishlab chiqarish xajmini oshirish orqali ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarni tatbiq etishga qiziqish va ehtiyojni oshiradi.                                  |
| 3  | Xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish        | Eksport mamlakatning jahon bozorida uzoq muddatli muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatishning belgisidir. Yangi texnologiyalarni o’zlashtirish imkonini beradi. |
| 4  | Iqtisodiy o’sishga ta’sir                   | Eksport hajmining oshishi yalpi ichki mahsulotni oshiradi, bandlikni yaxshilaydi, ishlab chiqarish quvvatlaridan to’liq foydalanishni ta’minlaydi.         |
| 5  | Xalqaro integratsiya                        | Xorijiy valyuta tushumlarini ta’minlash; mehnat unumdorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.  |
| 6  | Ilmiy-texnik rivojlanish                    | Eksportdan keladigan daromad yuqori qo’shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va ilg’or texnologiyalarni joriy etishga yo’naltiriladi.              |
| 7  | Investitsiyalarni jalb qilish               | Eksport tarmoqlarining rivojlanishi xorijiy investorlarni jalb qiladi, qo’shma korxonalar tashkil etiladi.   |
| 8  | Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash          | Eksportdan tushgan daromadlar zahira fondlarini yaratishda foydalaniladi (favqulodda holatlar uchun).  |
| 9  | Mahsulot ixtisoslashuvi va diversifikatsiya | Tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirishni rag’batlantiradi.                              |
| 10 | Milliy iqtisodiyot xavfsizligi              | Xom ashyo va mahsulotlarning diversifikatsiyasi xalqaro narx tebranishlarining salbiy ta’sirini yumshatadi.  |
| 11 | Eksport-import balansining tartiblanishi    | Sof eksport orqali iqtisodiy farovonlikni aniqlash; eksport shartnomalari orqali ichki va tashqi bozorlarni muvozanatlash imkonini beradi.                 |
| 12 | Global tajribalar va tavsiyalar             | M.Porter, A.Smit, D.Rikardo, E.Xeksher va B.Olin nazariyalari eksport orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishni tavsiya qiladi.                           |

Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.



To'rtinchi yo'nalish iqtisodiy o'sishga ta'sir deb nomlanadi. Bunda eksport qilishda yarim tayyor va tayyor mahsulotlar xajmi qanchalik yuqori bo'lsa eksportyor mamlakatga valyuta mablag'lari miqdorini ko'payishiga olib keladi. Bu mamlakat iqtisodiyotini belgilovchi indikator ya'ni yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga o'sishini ta'minlab beradi. Mamlakatlar bilan teng manfaatli savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash xalqaro integratsiyalashni mustahkamlashga olib keladi. Ma'lumki, bugungi kunda giyosiyosiy vaziyat tobora avj olayotganligi sanksiyalar sababli ayrim rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarish liniyalarni boshqa mamlakatlarga integratsiya qilishmoqda. Bunda ishlab chiqarish liniyasi kirib kelgan davlatning infrastrukturasi rivojlanib, aholi bandlik va turmush tarzi hamda xalq farovonligini ta'minlanishiga olib keladi. Ma'lumki yuqori texnologiyali zamonaviy uskunalar yordamida mahsulot ishlab chiqarish ish unumdorligini oshirishga, xarajatlarni kamayishiga va yuqori standartli mahsulotlar chiqishiga olib keladi.

Eksportning yettinchi yo'nalishida inestitsiyalarga qaratilgan. Mamlakat tataqqiyotining rivojlanishi investitsiya va eksportsizz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning investitsion jozibadorligi g'oyatda muhim sanaladi. Birinchidan eksport faoliyatini amalga oshirish uchun mahalliy va to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kirirtilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar ichki iqtisodiyotning transformatsiyasiga turtki bo'ladi va infrastrukturaviy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Eksportning sakizinchi yo'nalishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'lib, unda yuqorida ta'kidlanganidek mamlakatni yalpi ichi mahsuloti, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini ortishida va mahsulotlarni tashqi bozorlarga yo'naltirish hamda bu orqali mamlakatga valyuta oqimlarni tushishi mamlakat iqtisodiy salohiyatini belgilovchi omil xisoblanadi.

To'qqizinchi yo'nalish mahsulot ixtisoslashuvi va diversifikatsiyasi deb nomlangan. Bunda tadbirkorlik sub'yektlari ortgan sari o'zaro raqobat muhiti ham shakllanib boradi. Bu o'z-o'zidan yangi turdagi mahsulotlar diversifikatsiyasiga ya'ni yangi turdagi yoki yangi dizayndagi mahsulotlar ishlab chiqilishiga ehtiyoj ortib boradi va bular yangi mahsulotlar ustida ishlash bilan birgalikda yangi bozorlarga kirib borilishini ta'minlaydi.

Milliy iqtisodiyot xavfsizligi - bu mamlakat iqtisodiy tizimining tashqi va ichki xavf-xatarlardan himoyalanganligi va milliy manfaatlarni ta'minlashga qaratilgan barqaror iqtisodiy rivojlanish holatidir. Ushbu tushuncha mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini saqlash, raqobatbardoshlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi.

Eksport-import balansining tartiblanishi- bu mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini saqlash va tashqi savdo jarayonlarini muvozanatlashtirish uchun eksport va import o'rtasidagi nisbatni boshqarish jarayonidir. Bu jarayon milliy

iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish, savdo balansidagi ijobiy yoki salbiy farqlarni tartibga solish va mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Global tajribalar va tavsiyalar- bu xalqaro iqtisodiyotda samarali strategiyalarni aniqlash va mamlakat ichki iqtisodiy siyosatida ularni qo'llashga asoslangan yondashuv. Bu tushuncha turli davlatlarning eksportni rivojlantirish, savdo balansini yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish borasidagi tajribalarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Global tajribalar nafaqat muvaffaqiyatli amaliyotlarni, balki boshqa mamlakatlarning xatolaridan saboq olish imkonini ham beradi. Bunday tajribalar ilmiy nazariyalar va real dunyo amaliyotiga asoslanadi.

Umumiy toifadan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tashqi bozorlarga eksportni amalga oshirish turlari xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar ko'rinishida bo'ladi. Umuman olganda, xom ashyo mahsulotlarni qayta ishlab, qo'shimcha qiymat ko'rinishida xorijiy davlatlarga eksport qilinishi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishiga olib kelinishi dunyo tajribasidan ma'lum. Bu borada, mamlakatga kiritilgan mahalliy va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar xom ashyolarni chuqur qayta ishlashga va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishiga olib keladi. Buning natijasida, mamlakat sanoat ko'rsatkichlari va xizmat ko'rsatish sub'ektlari kengayib, raqobat muhitini vujudga keltiradi shu bilan birgalikda yalpi ichki mahsulot xajmining o'sishiga olib keladi. Iqtisodiy termindan ma'lumki, YaIM mamlakatning xar oy, chorak va yil davomida jami mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar sohasini aks ettiruvchi bozor qiymati hisoblanadi. Shunday ekan, YaIMning shakllanishi mamlakatning qonunchilik tizimidagi islohotlarga, davlat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlariga, xususiy tadbirkorlarga yaratib berilayotgan imtiyozlar va preferentsiyalar xamda tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi bilan bevosita bog'liq. Bularning barchasi mamlakatning iqtisodiyotining o'sish sur'atiga, ishsizlik darajasining pasayishiga, aholining farovonligiga hamda uning eksport salohiyati va geografiasining kengayishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, eksport milliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va uning o'sish sur'atlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

2-jadvalda eksport hajmini oshirishda raqobatbardoshlikni ta'minlash natijasida ta'sir etuvchi omillar ko'rsatib o'tilgan.

1. Mahsulot sifatini oshirish-bu ahamiyatlilik darajasi yuqori xisoblanadi. Sababi mahsulot sifati xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishi uchun eng muhim omillardan biridir. Yuqori sifatli mahsulotlar iste'molchilar ishonchini oshiradi va eksport hajmini ko'paytiradi. Amaldagi chora-tadbirlar: Sertifikatlash markazlarini tashkil qilish. Mahsulotlarning xalqaro standartlarga mosligini

tasdiqlash uchun sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yish samarali amaliyotdir. Bu ayniqsa, oziq-ovqat, to'qimachilik va texnologik mahsulotlar eksportida muhim ahamiyatga ega. Tavsiya etilgan strategiyalar R&D (ilmiy tadqiqot va ishlanmalar) markazlarini rivojlantirish. Bunda innovatsion markazlarni rivojlantirish orqali yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirishga erishish mumkin. Bu xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishiga xizmat qiladi.

## 2-jadval

### Eksportdagi raqobatbardoshlik omillari

| <b>№</b> | <b>Omil nomi</b>           | <b>Ahamiyatlilik darajasi</b> | <b>Amaldagi chora-tadbirlar</b>             | <b>Tavsiya etilgan strategiyalar</b>                       |
|----------|----------------------------|-------------------------------|---|--|
| <b>1</b> | Mahsulot sifatini oshirish | Yuqori                        | Sertifikatlash markazlarini tashkil qilish. | R&D markazlarni rivojlantirish                             |
| <b>2</b> | Logistika xarajatlari      | Yuqori                        | Ichki transport tizimini optimallashtirish. | Subsidiyalar joriy etish                                   |
| <b>3</b> | Brend yaratish             | O'rta                         | Tashqi reklama kompaniyalari.               | Mahalliy ishlab chiqaruvchi brendlarni qo'llab-quvvatlash. |

Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan

2. Logistika xarajatlari-bu xam ahamiyatlilik darajasi yuqori xisoblanib, mahsulotning yakuniy narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori transport xarajatlari mahsulotning raqobatbardoshligini kamaytiradi. Amaldagi chora-tadbirlar qismi ichki transport tizimini optimallashtirishni nazarda tutadi. Transport infratuzilmasini yaxshilash va logistika jarayonlarini soddalashtirish xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Misol uchun: avtomobil va temir yo'llarni modernizatsiya qilish. Tavsiya etilgan strategiyalar: Subsidiyalar joriy etish. Bunda logistika sohasiga davlat yordamini jalb qilish orqali eksport qiluvchilarning xarajatlarini kamaytirish. Masalan, eksportchilar uchun maxsus transport xarajatlarining bir qismini davlat hisobidan qoplash.

3. Brend yaratish - bu ahamiyatlilik darajasi o'rta xisoblanadi. Brend eksport qilinayotgan mahsulotning taniqliligini oshiradi va iste'molchilarning unga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Taniqli brendlar orqali mahsulotni yuqori narxlarda sotish imkoniyati tug'iladi. Amaldagi chora-tadbirlar: Jahon bozorida milliy mahsulotlarni reklama qilish uchun xorijiy reklama platformalari orqali kompaniyalar tashkil etiladi. Bu, odatda, qisqa muddatli yechim hisoblanadi. Tavsiya etilgan strategiyalar: Mahalliy ishlab chiqaruvchi brendlarni qo'llab-quvvatlash

Bunda davlat tomonidan mahalliy brendlarni rivojlantirish uchun imtiyozlar yoki

grantlar ajratish. Bu milliy mahsulotlar xalqaro bozorda tan olinishini ta'minlaydi va uzoq muddatli muvaffaqiyat keltiradi.

### **Xulosa va takliflar**

Umumiy xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, eksport xalqaro savdoni rivojlantirishga va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu mamlakatga global iqtisodiyotda ishtirok etish va yangi texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, mamlakat savdo balansini yaxshilashga yordam beradi. Agar eksport hajmi import hajmidan oshsa, demak, bu mamlakat o'z tovarlarini sotishdan boshqa mamlakatlardan tovarlarni sotib olishga sarflaganidan ko'ra ko'proq daromad oladi. Bu mamlakatning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu maqola adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida quyidagi muhim xulosalarga ega bo'ldik:

– eksport mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda, muhim o'rin tutadi. Eksport hajmini oshirish mamlakat daromadlarini oshirishga yordam beradi va barqaror iqtisodiy o'sishga yordam beradi;

–Eksport salohiyatini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, balki mahsulot sifatini oshirish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashni ham o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuv muhimligini ta'kidlaydi;

– sanoat korxonalarining eksport strategiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli eksport faoliyati nafaqat o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishni, balki innovatsion yondashuv va texnologiyalardan faol foydalanishni ham talab qiladi;

– ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga investitsiyalarni jalb etish paxta-to'qimachilik klasterining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda;

– Mahsulotlarni farqlash va geografik kengayish bozorlarni diversifikatsiya qilish va alohida bozorlarga qaramlikni kamaytirish uchun strategik harakatlardir;

– eksportchilarni subsidiyalar, rag'batlantirish, o'quv dasturlari va maslahat yordami kabi eksportni rag'batlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish zarur.

O'zbekiston eksport salohiyatini oshirish uchun avvalam bor mamlakat sanoat korxonalar infratuzilmalarni modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Bunda avvalam bor, qo'shimcha qiymat keltiradigan to'qimachilik tarmoq korxonalarini uskunalarni yangilashni taqozo etadi. Bugungi kunda to'qimachilik sanoati eksporti 3,2 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Agarda ushbu tarmoqda mavjud xom ashyo zaxiralari to'liq qayta ishlash natijasida yiliga 7 mlrd.dollarli mahsulotlarni

eksport qilish imkoniyati bo'ladi. Yana qo'shimcha ravishda O'zbekiston JST a'zo bo'lish masalasi kun tartibida turipdi. Xabarlarga tayangan holda, 2025 yilda O'zbekiston shu tashkilotga a'zo bo'lsa to'qimachilik mahsulotlari xalqaro brend tashkilotlar bilan ishlash natijasida eksport va import imkoniyatlar keskin oshadi. Yana bir jihatga e'tibor qaratish lozimki, bugungi kunda O'zbekiston logistik infratuzilmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda va bu borada tranzit mamlakatlar orqali dengiz portlariga chiqish masalasi xam strategik maqsadlarga kiradi. Xozirda O'zbekiston Afg'oniston orqali Pokiston karachi portiga chiqish masalasini muhokama qilmoqda. Bu orqali mamlakat dunyo bozoriga chiqish bilan birgalikda logistika xarajatlarni tushushini ta'minlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston sanoat tarmoqlarni modernizatsiya qilish mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilinishini va yangi bozorlar vujudga kelishini anglatadi. Ushbu o'rinda eksport salohiyati ikki jihatga tayanilishini inobatga olsak, bular omillar va natijalar xisoblanadi. Sanoat tarmoqlarini ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish, yetuk kadrlar masalasi, logistika infratuzilmalarni yahshilash, ishlab chiqarish quvvatlarning oshishi bular xammasi omillarga kirsa, mana shular natijasida ya'ni bajarilganda mamlakat eksport xajmi oshadi, xar xil turdagi mahsulotlar assortimentlar ishlab chiqariladi, eksport geografiyasi kengayadi, yetuk kadrlar bilan ta'minlanadi. Bularning barchasi eksport salohiyatini ifodalaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. A.Soliyev va Z.Xakmovlar “Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qo'llayotgan mamlakatlar tajribasidan Namangan viloyatida foydalanish imkoniyatlari” “Biznes-ekspert”jurnali 2014 yil 1-son, 52-57 bet.

2. A.SH.Bekmurordov va Yang Song Be “O'zbekiston to'qimachilik sanoati strategiyasini rivojlantirishda klaster yondashuvi”. Monografiya, 2006 yil, 112 bet.

3. Портер М.Международная конкуренция. –М.: Международные отношения, 1993. С.51.

4. Enright, M (1996) “Regional Clustersand Economic Development: A.Research Agenda”, in Staber, U.,Schaefer, N. And Sharma, B, (Eds). “Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin”. Walter de Gruyter, p.190-213.

5. Маршалл А. Принципы экономической науки, I-III. Пер. с англ.- М.-Издательская группа “Прогресс”, 1993

6. П.Бегаттин- Becattini G. From Marshalls to the Italian “Industrial Districts”/ [www.copetitivness.org](http://www.copetitivness.org)

7. Коно Т. Стратегия и структура японских предприятий. –М.: Мысль, 1987.-214 с.
8. Новицкий Е.Г. Проблемы стратегического управления диверсифицированными корпорациями М. Буквица, 2001.
9. Rajan R., Lamba R. Breaking the Mould: Reimagining India's Economic Future. – Penguin Random House India Private Limited, 2023.
10. Brandi C. et al. Do environmental provisions in trade agreements make exports from developing countries greener? //World Development. – 2020. – Т. 129. – С. 104899.
- ОЕС. “Cars in United States”. <https://oec.world/>
11. Popescu A. et al. Comparative advantage in honey trade among the top exporting countries in the world //Scientific Papers Series Management, Economic Engineering in Agriculture & Rural Development. – 2023. – Т. 23. – №. 3.
12. Ricardo D. Extract from On the Principles of Political Economy and Taxation, London,  
1817, pp. 156–185 //Romanticism & Politics 1789-1832. – Routledge, 2020. – С. 175-204.
13. Nikitenko V. et al. Sustainable agricultural development paradigm formation in the context of managerial experience of industrialized countries //Revista de la Universidad del Zulia. – 2023. – Т. 14. – №. 39. – С. 81-97.



# Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz